Sport mashg'ulotlar davomida mushak va suyak tizimi rivojlanishi	606
<i>Bo'ronova Habiba Erkin qizi</i>	
Stol tennis o'yini texnikasi.....	609
<i>Ibragimov Abduqahhor Abdulaziz o'g'li</i>	
Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy platformalarning afzalliklari: Wordwall, Educaplay, Blooket, Genially, Kahoot platformalari	613
<i>Kalandarova Dilnoza Samandarovna, Qodirova Madina Nosirovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan paraarmrestlingchi talabalarni musobaqa oldidan texnik tayyorgarligini takomillashtirish	617
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Developing Critical Reading Skills Through Content-Based Instruction.....	621
<i>Mekhmonkulov Burkhon Ma'ruf ugli</i>	
Tog'li va shahar hududida ta'lim oluvchi tinglovchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini taqqoslash	626
<i>Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Korxonada va tashkilotlarda ishchi-xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida ish faolligini oshirish texnologiyasi	630
	Muxametov Axmad Muxametovich	
	Xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining xalqaro baholash tizimini O'zbekiston ta'limiga moslashtirishdagi o'rni ...	634
	Namazova Manzura Urakovna, Nodirov Dilmurod	
	Digital Reading vs. Print Reading: Effects on EFL Learners' Reading Speed and Understanding	639
	Rustambekova Ozoda Dilshod kizi	
	Yoshlarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini oshirishning samarali usullari	644
	To'rayev Farrux Hakim o'g'li	
	Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-qizlarni dzyudo sport turi texnik harakatlariga o'rgatish texnologiyasi	647
	Toshboyeva Munisa Bozor qizi	
	Sport mashg'ulotlarda jarohatlarning oldini olish va xavfsizlik choralarini	650
	Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
	Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
	Ахмедов Нумон	
	Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
	Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqliiy usul misolida)	661
	Jo'rayeva Dilafuz Nuriddinovna	
	O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
	M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
	Masharipova Miyassar Ichanovna	
	Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
	Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
	Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
	Shaxnoza To'xtiyarova	
	Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
	Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
	Sobirov Avazbek Anvarovich	
	Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
	Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
	Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
	Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna	
	Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
	Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
	Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
	Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
	Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
	Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
	O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
	E'zozxon Qobilova	
	Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
	G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
	O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
	Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matn o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloeyvna	
Dizariyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DUDUQLANISHNI KELIB CHIQUISH SABABALARI VA KORREKSION ISHLAR

Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna

Samarqand Kimyo xalqaro universiteti

Logopediya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanishning kelib chiqish sabablari, fiziologik va psixologik mexanizmlari, shuningdek, uning klinik ko'rinishlari atroflicha tahlil qilingan. Duduqlanish – nutq apparati mushaklarining tortishishi natijasida nutq sur'ati, ohangi va ritmining buzilishi bilan kechuvchi murakkab nutqiy buzilish turi sifatida izohlanadi. Maqolada duduqlanishning klonik, tonik va aralash shakllari, shuningdek, ularning nafas olish, ovoz paychalari va artikulyatsion apparatlar faoliyatiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: duduqlanish, nutq buzilishi, klonik, tonik, logopedik ritmika, ruhiy travma, artikulyatsiya, nafas terapiyasi, motorika, logopedik korreksiya.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the causes, physiological and psychological mechanisms, and clinical manifestations of stuttering. Stuttering is defined as a complex speech disorder resulting from spasms of the speech muscles, leading to disruptions in speech rate, intonation, and rhythm. The article scientifically examines the clonic, tonic, and mixed types of stuttering, as well as their effects on breathing, vocal cords, and the articulatory system.

Key words: stuttering, speech disorder, clonic, tonic, speech rhythemics, psychological trauma, articulation, breathing therapy, motor skills, speech correction.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены причины возникновения заикания, его физиологические и психологические механизмы, а также клинические проявления. Заикание определяется как сложное речевое расстройство, возникающее вследствие судорожных сокращений мышц речевого аппарата, сопровождающееся нарушением темпа, интонации и ритма речи. В статье научно обосновано влияние клонических, тонических и смешанных форм заикания на дыхание, голосовые связки и артикуляционный аппарат.

Ключевые слова: заикание, речевое расстройство, клоническое, тоническое, логопедическая ритмика, психическая травма, артикуляция, дыхательная терапия, моторика, логопедическая коррекция.

KIRISH

Duduqlanish – bu nutq apparati mushaklarining tortishishi natijasida nutqning sur'at va ohangining buzilishidir.

Duduqlanish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanish tarixida eng qadimiylaridan biri deb hisoblash mumkin. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish fanning rivojlanish darajasi hamda mualliflarning bunday nutq buzilishlariga qanday nuqtayi nazardan yondashganliklari bilan bog'liqdir.

Fiziologik zaiflashuvlar asosida duduqlanuvchi shaxsning ruhiy xususiyatlari shakllanadi, bu esa duduqlanishni yanada chuqurlashtiradi. Ruhiy o'zgarishlar ko'pincha birlamchi ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Duduqlanish paytidagi nafas olishning buzilishi uchta shaklga ajraladi: ekspirator (tortishishli nafas chiqarish), inspirator (tortishishli nafas olish, ba'zida xirillash bilan) va respirator (tortishishli nafas olish va nafas chiqarish, ko'p hollarda so'zlarning bo'linishi bilan).

Ovoz paychalari apparatidagi pay tortishishi quyidagicha xarakterlanadi:

- birlashgan (tortishib birlashgan, tovush burmalari o'z vaqtida yozilib ketmaydi – tovush birdaniga uziladi, yoki klonik yoki cho'ziqli tortishish yuzaga keladi – ma'rash tusidagi o'zilishtirish "o-o-olim" yoki turtkiga xos unli tovush "ooo" hosil bo'ladi);



- ajralishgan (tovush tirgishi ochiq qoladi – bu holda butunlay sukut saqlash yoki shivirlagan nutq kuzatiladi);
- vokalga oid (bu bolalarga xosdir, dastlab I.A. Sikorskiy tomonidan aniqlangan). Bolalar so'zlarda unilarni cho'zib talaffuz qiladilar.

Artikulyatsion apparatda ushbu tortishishlar farqlanadi: labga oid, tilga oid va yumshoq tanglayga oid. Ular ko'pincha portlovchi undosh tovushlar (q, k, g', g, b, p, t, d) ni talaffuz qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Binobarin, eng murakkab tovushlarning fonetik tabiati bilan bog'liq qiyinchiliklardan tashqari, grammatik omillar – iboradagi so'z holati, matnning tuzilishi va boshqalar ham katta ahamiyatga ega. Bunda bayonning mazmunini hisobga olish lozim, zero, duduqlanish talaffuz qilinayotgan so'zning semantik va hissiy murakkabligiga qarab kuchayadi: kishi yaxshi ma'lum bo'lgan narsani bayon qilishdan ko'ra, bahs va munozara paytida ko'proq duduqlanadi. O'quvchilar yaxshi tayyorlangan o'quv materialini aytib berishda kamroq duduqlanadilar.

Nutq ritmi duduqlanish tezligi borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Talaffuzdagi urg'u, intonatsiya va ritm buziladi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan o'zilib-o'zilib chiqadi; jarangdorlik, talaffuz sur'ati, tovush kuchi, balandligi va shiradorligi duduqlanuvchining nutqiy maqsadi hamda emotsional holatiga bog'liq holda o'zgaradi.

N.A. Richkovaning maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning motorik va nutqiy faoliyatini tadqiq etishlariga ko'ra, ularni quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Normal nutq tempiga ega duduqlanuvchi bolalar;
2. Nutq tempi tezlashgan duduqlanuvchi bolalar;
3. Nutqning temp-ritmini me'yorda ushlab turishga qiyinaluvchi duduqlanuvchi bolalar;
4. Ritm hissi sust rivojlangan duduqlanuvchi bolalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Duduqlanishning tarqalganligi yosh, jins, faoliyat turi, yashash joyi va boshqa omillar bilan shartli ravishda bog'langandir. U ko'pincha 2 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan davrda, bolaning nutq funksional tizimi faol rivojlanayotgan va shaxsining shakllanish jarayoni kechayotgan paytda paydo bo'ladi. Keyinchalik duduqlanishga moyillik pasayadi, ammo keyingi o'n yillikda (4 yoshdan 14 yoshgacha) duduqlanishning paydo bo'lish holatlari taxminan dastlabki uch yildagidek saqlanib qoladi.

Duduqlanishning kuchayishi yetakchi faoliyatning almashinuvi (o'yin o'rniga o'qish), bolaga va uning nutqiy faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishi, yaqin kishilar, tengdoshlari hamda jamoa bilan bo'ladigan munosabatlarga ham shartli ravishda bog'liqdir. Duduqlanish jinsiy yetilish davrida ham kuchayishi mumkin.

Duduqlanuvchi bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlariga fiziologik belgilar kiradi. Ular orasida nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarining tortishishi, markaziy nerv sistemasining (MNS) va jismoniy salomatlikning buzilishi, umumiy hamda nutq harakatlarining izdan chiqishi kabilar mavjud. Psixik belgilar esa nutqda to'tilish va his-hayajonli nutqning boshqa buzilishlari, nutqda "qayd qilish" fenomeni, logofobiyalar, nutqdagi sun'iy "nayranglar" va boshqa ruhiy omillarni o'z ichiga oladi.

Nutq akti jarayonidagi muskul tortishish duduqlanishning asosiy tashqi alomati sanaladi. Aslida muskul tortishish uch xil bo'ladi: klonik, tonik va aralash.

Klonik muskul tortishish vaqtida tovush, bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi (*o-o-o-lma, pa-pa-pa-parta, non-non-non*).

Tonik muskul tortishish vaqtida esa so'z boshida to'xtalish yuz beradi va to'tilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan yoki so'zdan ikkinchisiga o'tolmaydi, uzoq to'xtab qoladi (*...ol...ma, p...arta, ...n...on*).

Aralash turi – klono-tonik yoki tono-klonik muskul tortishish shaklida namoyon bo'ladi.

Odatda bunday tortishishlar bilan nafas, ovoz va artikulyatsion apparat faoliyati izdan chiqadi, chunki ularning harakati markaziy nerv tizimi tomonidan boshqariladi va nutq jarayonida bir butun tizim sifatida ishlaydi. Mavjud pay tortishishining ustunligiga qarab, nutqning turli organlari – nafas olish, ovoz paychalari yoki artikulyatsion apparatda o'zgarishlar kuzatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi paytda duduqlanish sabablarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: zamin va zarba omillari. Ba'zi etiologik faktorlar duduqlanishning rivojlanishiga ta'sir qiladi va bevosita uni keltirib chiqarishi mumkin. Zamin deb hisoblanadigan sabablarga quyidagilar kiradi:

1. Ota-onalarning asabiyligi, infeksiyon va somatik kasalliklari, markaziy nerv sistemasining sustlashgan yoki tez qo'zg'aluvchan funksiyalari.

2. Duduqlanuvchining nevroitik xususiyatlari: kechqurungi qo'rquv, enurez, yuqori qo'zg'aluvchanlik, emotsionallik.
3. Konstitutsional moyillik – vegetativ nerv sistemasining kasalliklari, oliy nerv faoliyatining yuqori darajadagi buzilishlari, psixik travmalarga moyillik.
4. Irsiylik. Duduqlanish nutq apparatining tug'ma zaifligi zaminida rivojlanadi, u retsessiv belgi sifatida irsiyat orqali o'tishi mumkin.
5. Bosh miyaning jarohatlanishi, homiladorlik yoki tug'ruq paytidagi travmalar, asfiksiya, infeksiyon, travmatik va moddalar almashinuvi buzilishlari.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablar somatik va ruhiy sohalarda patologik qo'zg'alishlarni chaqirib, nutq rivojlanishining kechikishiga va duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Noqulay sharoitlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bolaning jismonan sustligi;
- miya faoliyatining yoshga xos xususiyatlari.

Bosh miyaning katta yarim sharlari asosan bola hayotining besh yoshiga kelib shakllanadi. Shu yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assimetriya vujudga keladi. Nutqiy faoliyat ontogenetik jihatdan differensiallashgan bo'lib, kech yetiladi va ayniqsa zararlanishga tez moyil bo'ladi. O'g'il bolalarda bu jarayon qizlarga nisbatan sekin kechadi, bu esa ularning nerv sistemasining turg'un emasligiga sabab bo'ladi.

3–4 yosh oralig'ida nutqning tez rivojlanishi kuzatiladi. Kattalar bilan muloqot ta'sirida nutqning kommunikativ, bilish va boshqaruv funksiyalari tez shakllanadi. Ko'plab bolalarda fiziologik xarakterdagi so'z va bo'g'inlarni takrorlash (iteratsiya) kuzatiladi.

Bolaning ruhiy holatidagi yashirin cheklanish, atrofdagilar bilan noto'g'ri munosabatlar, yuqori reaktivlik, kattalar va bolalar o'rtasidagi ijobiy emotsional aloqa yetishmasligi, motorika va ritm sezgisining rivojlanmaganligi, mimika va artikulyator harakatlarning sustligi – bularning barchasi duduqlanish uchun zamin yaratadi.

Yuqorida sanab o'tilgan noqulay sharoitlarning har biri o'z kuchiga qarab, duduqlanishni keltirib chiqaruvchi zarba omiliga aylanishi mumkin.

Zarba omillari guruhiga anatomo-fiziologik, psixik va sotsial faktorlar kiradi.

Anatomo-fiziologik sabablar:

- ensefalit natijasidagi asoratlar;
- jismoniy kasalliklar, jarohatlar;
- tug'ruq paytidagi asfiksiya;
- miyaning organik buzilishi, po'stloqosti mexanizmlarining zararlanishi;
- miyaning chayqalishi;
- nutq markaziy apparatlarining sustligi;
- intoksikatsiyalar;
- haddan tashqari charchash, nagruzka;
- tif, qizamiq, raxit kabi kasalliklar;
- ichki sekresiya bezlari va burun-halqum kasalliklari;
- dislaliya, dizartriya va nutqiy rivojlanishning sustligi bilan bog'liq artikulyatsion apparatning yetarlicha shakllanmaganligi.

Ruhiy va sotsial sabablar:

- qisqa muddatli, bir lahzalik psixik travmalar (qo'rquv, vahima);
- uzoq davom etuvchi ruhiy travmalar (oiladagi noto'g'ri tarbiya, ortiqcha erkanlash, konfliktli vaziyatlar, surunkali iztiroblar, bolaga haddan tashqari e'tibor berish);
- o'tkir ruhiy zarbalar (tasodifiy, lekin kuchli emotsional holatlar – vahima, haddan tashqari xursand bo'lish va h.k.);
- nutqning noto'g'ri shakllanishi: nafas olayotganda gapirish, juda tez so'zlash, tovushlar talaffuzidagi buzilishlar;



- ota-onalarning asabiy va shoshqaloq nutqi;
- yoshga mos bo'lmagan nutq materiallarini o'rganishga majbur etish;
- bir vaqtning o'zida bir necha tilni o'rganish (ba'zan duduqlanish faqat bir tilda namoyon bo'ladi);
- duduqlanuvchilarga taqlid qilish (passiv yoki aktiv shaklda);
- chapaqaylikni majburan to'g'rilash, bu esa oliy nerv faoliyatining disorganizatsiyasiga olib keladi;
- o'qituvchining bolaga nisbatan haddan tashqari talabchanligi.

Nutqiy buzilishlarni tuzatish nutqiy va nutqiy bo'lmagan psixik funksiyalarni rivojlantirish hamda insonning tashqi va ichki muhitga moslashuvini korreksiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Logopedik ritmika sog'lomlashtiruvchi, ta'limiy va tarbiyaviy-korreksion vazifalarni bajaradi. U orqali suyak-muskul apparati mustahkamlanadi, nafas olish, motor va sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat, to'g'ri qomat, chiroyli yurish va harakat madaniyati shakllanadi.

Logopedik ritmika duduqlanish bilan bog'liq logopedik korreksion ishlarining muhim bo'limi hisoblanadi. U musiqali harakatlar, nutqiy mashqlar va o'yinlar tizimidan iborat bo'lib, har qanday nutq nuqsonini tuzatishda logopedik mashg'ulotlar bilan uyg'un holda olib boriladi.

Duduqlanuvchi bolalarda nutqni asta-sekin – yengil shakllardan boshlab murakkab hissiy nutqgacha rivojlantirish zarur. Logopedik ritmika quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- bolalar bog'chasining nutq guruhida olib boriladigan mashg'ulotlar;
- nutqni cheklash davrida (gapirmaslik yoki shivirlab muloqot qilish bosqichi) umumiy motorika va yuz muskullarini rivojlantirish;
- nutqiy jarayon, eshitish va ko'rish diqqatini, xotirani mustahkamlash;
- ixtiyoriy xulq, diqqat va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish;
- shivirlab aytilgan gaplarda pauza ustida ishlash;
- "Kuz", "Sabzavotlar", "Mevalar" kabi mavzularda lug'atni boyitish va faollashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Duduqlanish – murakkab etiologiyali, ko'p omilli nutq buzilishi bo'lib, uning kelib chiqishida irsiy, fiziologik, nevrologik va psixologik sabablar o'zaro chambarchas bog'liqdir. Duduqlanuvchi bolalarda nafaqat nutq apparati faoliyatida, balki umumiy motorika, hissiy-irodaviy soha va psixik barqarorlikda ham o'zgarishlar kuzatiladi. Shu bois, duduqlanishni bartaraf etish kompleks logopedik yondashuvni talab etadi.

Logopedik ritmika, nafas terapiyasi, musiqali-harakatli mashqlar, shivirlab muloqot davri kabi metodlar orqali duduqlanuvchi bolalarda nutqiy faoliyatni tiklash, emotsional barqarorlikni ta'minlash va shaxsiy ishonchni mustahkamlash mumkin. To'g'ri tashkil etilgan logopedik-korreksion ishlar duduqlanuvchi bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi hamda ularning nutqiy va ruhiy rivojlanishida ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Картушина М.Ю. Логоритмические занятия в детском саду. – М., 2014.
2. Новиковская О.А. Логоритмика для дошкольников в играх и упражнениях. – М., 2005.
3. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой., С.Н. Шаховской. – М., 2003.
4. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2022.
5. Mo'minova L., Amirsaidova Sh. va boshqalar Maxsus psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Mo'minova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O'qituvchi, 1993. – 77 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.